



SURXONDARYO MILLIY MATOLARINING TURLARI.

Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi

Termiz davlat universiteti, 190111. Termiz shahri,
"Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy.

E-mail: sarvinozraximqulova1990@gmail.com

Narziyeva Fotima Rustam qizi

Termiz davlat unversiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18397667>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 28-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

*Beqasam, Janda matosi, kuppi,
chopon, jelak, chakmon, libos..*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxondaryo milliy matolari har bir turi to'qilishi, rang, shakli murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Surxon vohasida matolarining murakkab bo'lishi ranglar o'zgacha mano kasb qilib ularning takrorlanmas jilosi etibor qaratilgan.

O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Surxondaryoda ham liboslar ko'p qavatli bo'lib, qavatma-qavat, ustma-ust kiyilgan. Bu uslubda kiyinish, birinchidan, qadimdan ayollar yoshi, darajasini bildirib turuvchi omil, ikkinchidan esa issiq iqlim sharoitida kiyim ostida komfort temperaturani saqlab turuvchi ximoya bo'lib xizmat qilgan. Surxon ayollari kiyimining ko'p qavatligini tahlil qilsak, ularda boy xonimlar koproq ustma – ust liboslar kiyishgan. Ayollar ichidan kiyiladigan libosi ustidan kiyiladigan liboslardan uzun bo'lganligi bilan ajralib turadi. Libosning eng uchida hamda etak qismida kashtalari bo'lib, ustki libosning tagidan ko'rinib turgan. Ustidan kiyilgan libosning yeng uchida va old qismida to'liq kashta bilan bezatilgan. Uning ustidan jelak va kurta kiyilgan. Liboslar qavatlari uch qavat bo'lishiga qaramay, havo almashinuvi yaxshi bo'lgan. Shuningdek, ayollar liboslarining keng bichimi ham havo almashuvini ta'minlab bergan.


O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Surxondaryoda ham liboslar ko'p qavatli bo'lib, qavatma-qavat, ustma-ust kiyilgan. Bu uslubda kiyinish, birinchidan, qadimdan ayollar yoshi, darajasini bildirib turuvchi omil, ikkinchidan esa issiq iqlim sharoitida kiyim ostida komfort temperaturani saqlab turuvchi ximoya bo'lib xizmat qilgan. Surxon ayollari kiyimining ko'p qavatligini tahlil qilsak, ularda boy xonimlar koproq ustma – ust liboslar kiyishgan. Ayollar ichidan kiyiladigan libosi ustidan kiyiladigan liboslardan uzun bo'lganligi bilan ajralib turadi. Libosning eng uchida hamda etak qismida kashtalari bo'lib, ustki libosning tagidan ko'rinib turgan. Ustidan kiyilgan libosning yeng uchida va old qismida to'liq kashta bilan bezatilgan. Uning ustidan jelak va kurta kiyilgan. Liboslar qavatlari uch qavat bo'lishiga qaramay, havo almashinuvi yaxshi bo'lgan. Shuningdek, ayollar liboslarining keng bichimi ham havo almashuvini ta'minlab bergan.



1 - rasm. XIX- XX arsdagi Surxondaryo kashtali ayollar ko'ylagi.

Ayollarning liboslari ichki ko'ylak, ustki ko'ylak, kurta bo'lgan. Bu liboslar havo harorati yuqori bo'lganda ham, yoz mavsumlarida ham ustma – ust kiyilganligini tarixiy manbalardan ko'rish mumkin. Ayollar ichki kiyimi oq surp va oq satindan, ustki libos rangli satindan hamda atlas, ipak shoyi, shoyidan ham tikilgan. Ustidan kiyiladigan jelak va kurtalar yo'l-yo'l alacha matosi hamda beqasam va janda matolaridan tikilgan. Bunday matolar uy sharoitida to'qilgan bo'lib, asosan paxta va jun tolasidan ma'lum miqdorda esa pilladan tayyorlangan. Matolar tabiiy yo'l bilan bo'yalgan. Janda matosi Surxondaryoning Boysun tumanida xunarmandlar tomonidan hozirgacha to'qilib kelmoqda (1- rasm).

Ayollar libosida kiyim ko'p qavatli bo'lsada uning issiq havo sharoitida tana atrofda mo'tadil komfort va isib ketmaslik holatini saqlab turishi avvalo kiyim matosining tola tarkibi, havo o'tkazuvchanligi va gigenik xususiyatlari bilan izohlanadi. Milliy matolarining bu xususiyatlarini chuquroq o'rganish maqsadida ular laboratoriya tekshiruvidan o'tkazildi. Surxondaryo hududining bir necha an'anaviy matolarining tarixi, tola tarkibi, yuza zichligi, havo o'tkazuvchanligi, rangning quruq ishqalanishga chidamliligi, uzulish kuchi, g'ijimlanmasligi, ishqalanishga chidamliligi, qalinligi, janda, olacha, beqasam (mayda yo'l), beqasam (katta yo'l) matolarida o'rganildi va tahlil etildi (2-rasm).



2- rasm. Surxondaryoni Janda va beqasam matosi.

Beqasab matosi yo'l-yo'l gulli pishiq mato; tanda ipi ipak, arqog'i ipdan to'qiladi. Arqoq ipi tanda ipidan yo'g'onroq bo'lgani uchun mato yuzasida ko'ndalang chiziqlar (g'adirbudurlik) hosil bo'ladi. To'qish jarayonida arqoq ipi ho'llanib turiladi. Maxsus ishlov berib kudunglangandan so'ng Beqasabning bir tarafi atlasdek silliq, bir tarafi tovlanib turadi. Oldindan bo'yalgan tanda iplari ishlatilishi natijasida Beqasab guli ikki tomonlama xilmaxil va rangbarang bo'ladi. O'rta Osiyoning yirik ipakchilik markazlarida ishlab chiqarilgan Beqasablar qalinyupqaligi, mato enining torkengligi, rang xillarining tanlanishi, yo'lyo'l gullarining tartibi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Buxoro—Samarqand Beqasablarining arqoq ipi yo'g'on, mujassamoti markazi oddiy bir me'yorda takrorlanuvchi aniq keng (pushti, sariq, zangori yoki pushti, binafsha, sariq tusli) yo'llardan, qirg'og'i esa hoshiya yo'llardan iborat. Bundan tashqari, "zanjira" gullar, abr nusxa yoki turli kvadrat, chiziqcha, mayda gullar va boshqa tasvirlar qo'shib bezatilgan. Mahalliy yorqin koloriti ranglarga boy. Beqasab Buxoro—Samarqand vodiysida olacha nomi bilan ham mashhur.

Surxon vohasi Beqasablari yupqa va mayin, chunki arqoq ipi ingichkaroq; guli, asosan, sovuq feruzabinafsha ranglardan iborat, ko'proq bo'rko'k tusli va turli xil yashil ranglarning bir-biriga mayin o'tishi bilan boshqa Beqasablardan ajralib turadi. Ba'zi an'anaviy gullari ("besh kashta", "Bayrok")da yashil rangga yorqin pushti rang aralashtirilgan. Qadimda kuyov to'nlariga ishlatilgan

Chopon erkaklar ustki kiyimini, jelak, chakmon, kebanak, po'stin tashkil etgan. Chopon turkiy xalqlarning asosiy ustki kiyimidir. Asosan erkaklar kiyimi hisoblanib, yozma manbalarda XV asrdan uchray boshlaydi. Tadqiq etilayotgan davrda Surxon vohasida choponlar uzun va keng bo'lib, avra-astarli ichiga paxta solib qavilgan. Erkaklar va ayollar ustki kiyimlar jelak, chakmon, kebanak janda beqasam matolaridan tikilgan. Bu matolar Surxondaryo iqlimiga mos bo'lib bu matolarning havo o'tqazuvchanligi yuqori hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki Surxon milliy matolarining fizik-mexanik xususiyatlarini taxlil qilindi va ularni ranglari o'rganildi. Zamonaviy kiyimlar yaratishda milliy matolardan foydalanilsa, milliy qadriyatlarini tiklagan bo'lar edi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) y.
2. Binafsha Nodir. An'anaviy xotin – qizlar libosi. Moziydan Sado jurnali. Toshkent - 2013.
3. U.S. Raxmatullayeva, S.A. Raximqulova. Surxondaryo kostyumida milliy elementlarning o'rni. O'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2021
4. Абдуллаев Т.А., Ҳасанов С.А. Одежда узбеков (XIX-нач. XX вв.)-Т., 1978.
5. Жабборов И. Ўзбеклар. (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). –Т., Шарқ, 2008.
6. С.А.Рахимкулова, У.С.Рахматуллаева. Анализ символического значения украшений ювелирных изделий сурхандаринских женщин// Универсум: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 7(112). УРЛ: [хттпс://7универсум.ком/ру/теч/архиве/итем/15798](http://7универсум.ком/ру/теч/архиве/итем/15798)